

SHARTNOMA № JDP4115/3002  
Mahalliy va xalqaro yo'nalishlari bo'yicha qatnovchi  
yo'lovchi poyezdlarga chipta sotish xizmati

2022 yil «05» Subar

Qarshi shahri

“O'ztemiryo'lyo'lovchi” AJ tomonidan ishonchnoma asosida ish yurituvchi Qashqadaryo filiali (bundan buyon matnda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) boshliq vazifasini bajaruvchi A.M.Jabborov bir tomondan, Kapitulyat Mullajon Aspoqov Uz bundan buyon matnda «Buyurtmachi» deb yuritiladi boshliq J. Puyfranz Uz inchi tomondan quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdik.

**I. SHARTNOMANING PREDMETI.**

1.1. "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga mahalliy, xalqaro yo'nalishi bo'yicha qatnovchi yo'lovchi poyezdlariga hamda tezyurar yo'lovchi poyezdlariga temir yo'l chiptalarini sotish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi.

1.2. "Buyurtmachi" temir yo'l chiptalari uchun "Bajaruvchi"ga tuzilgan mazkur shartnomaga asosan, amaldagi narxlar asosida, 100 foiz oldindan to'lovlarni amalga oshirgan holda sotib olishni ta'minlaydi.

**II. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI.**

2.1. "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"dan chipta olish uchun bergan talabnomasiga asosan, mahalliy va xalqaro yo'nalishlari bo'yicha temir yo'l chiptalarini ajratilishi ta'minlaydi. Bunda ya'ni, «Buyurtmachi», «Bajaruvchi»ga yo'lovchi poyezdlarning ketishidan 20 kun oldin talabnoma berish shart.

2.2. Talabnoma "Buyurtmachi" rahbari va bosh buxgalter tomonidan imzolanishi va yuridik shaxs muhri bilan tasdiqlanishi lozim. Xuddi shunday, talabnomada yuridik shaxsning nomi, ya'ni "buyurtmachi", talab qilinadigan o'rinlar soni, yo'lovchi poyezdlari, yo'nalishlar, jo'nash sanasi, boradigan stansiya ko'rsatilishi shart. Shu bilan birga talabnomada 2 nusxada, temir yo'l chiptalari olinayotgan shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi, pasport seriyasi va raqami, tug'ilgan yili ko'rsatilgan holda chiqib ketish ro'yxatlari ham ilova qilinishi kerak.

2.3. "Buyurtmachi" yo'lovchi poyezdi jo'nab ketishidan 10 kun oldin buyurtma qilingan chiptalarni sotib olishi, chiptalarning to'liq narxini to'lashi shart. Agar chiptalar "buyurtmachi" tomonidan yo'lovchi poyezdi jo'nashidan oldin belgilangan muddatda sotib olinmagan bo'lsa, talabnoma bekor qilinadi va chiptalar erkin savdoga chiqariladi.

2.4. Agarda ushbu talabnomada ko'rsatilgan chiptalar sotilmay qolgan taqdirda, «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ga yetkazilgan zararlarni to'liq qoplash majburiyatini oladi.

2.5. «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ga 10 kishidan kam bo'lgan chiptalar xaridi uchun berilgan talabnomalar bo'yicha temir yo'l chiptalari umumiy asoslar bo'yicha hisob-kitob qilinadi.

2.6. Mazkur shartnoma doirasida "Buyurtmachi" temir yo'l chiptalari narxlarining o'zgarishi, Shveysariya frankining milliy valyutaga nisbatan kursi bo'yicha o'zgarishiga, vokzallarda va poyezdlarda ko'rsatiladigan xizmatlar narxining o'zgarishiga va tarif indeksatsiyasiga bog'liq bo'lganligi sababli, narxlar o'zgarib boradi.

2.7. "Buyurtmachi" tomonidan rasmiylashtirilgan chiptalar qaytarilgan taqdirda, kassasi orqali aniqlik kiritilib, chiptalarni pul mablag'lari "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ da'vo tartibida "yo'lovchilar, bagaj va yuk bagajlarini tashish qoidalari" asosida hisob-kitob qilinadi.

2.8. "Buyurtmachi" tomonidan guruhlar uchun sotib olingan chiptalar, temir yo'l vokzalidagi kassalar orqali to'lov qaytarib berilmaydi. Pul o'tkazish yo'li bilan olingan chiptalar, avtomatlashtirilgan tizim orqali majburiy qaytarilgandan keyin pul mablag'lari da'vo tartibida amalga oshiriladi.

2.9. Temir yo'l chiptalari rasmiylashtirish faqatgina "O'ztemiryo'lyo'lovchi" Aksiyadorlik jamiyatining hisob-raqamiga pul mablag'lari tushganligini tasdiqlovchi to'lov topshiriqnomasini nusxasi taqdim etish sharti bilan amalga oshiriladi.

2.10. Agar talabnomada ko'rsatilgan yo'lovchilar poyezdida va vagonlarda joylar yetarli bo'lmasa, «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning roziligi bilan boshqa yo'lovchi poyezdida yoki boshqa toifadagi vagonlarda joy berilishi mumkin.

2.11. "Bajaruvchi" bo'sh joylar bo'lmagan taqdirda va yo'l hujjatlari narxi to'liq oldindan to'lanmagan taqdirda, "Buyurtmachi"ning talablarini ya'ni temir yo'l chiptalarini sotishni rad etishga haqlidir.

2.12. «Bajaruvchi», «Buyurtmachi»ning 10 kishidan kam fuqarolarga yo'l chiptalarini rasmiylashtirishda, yo'l chiptalari sotish umumiy asosda amalga oshirilib, joylarni bron qilmasdan amalga oshirilishi mumkin. Agarda, chiptalar bo'lmagan taqdirda, shartnomaning 2.10-bandida ko'rsatilgan shartlar bo'yicha amalga oshiriladi.

2.13. "Bajaruvchi" tarif va xizmatlarga narxlarning o'zgarigan taqdirda, bu haqda "Buyurtmachi"ga uch kun ichida qo'shimcha hisob-faktura taqdim qiladi va qayta hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

**III. SHARTNOMANING SUMMASI, HISOB  
KITOBLAR VA HAQ TO'LASH TARTIB**

3.1. "Buyurtmachi" temir yo'l chiptalar uchun "Bajaruvchi"ni, shu jumladan, 10 nafar va undan ortiq yo'lovchilar guruhi uchun QQS bilan belgilangan talabnoma haqini to'laydi.

3.2. "Buyurtmachi"ga temir yo'l chiptalarini sotish "Bajaruvchi"ning kassalaridan "Buyurtmachi" tomonidan temir yo'l chiptalarini olishga ishonchnoma taqdim qilingandan keyin "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ buxgalteriya bo'limi tomonidan belgilangan to'lov topshiriqnomasi, talabnoma va hisobga olish hujjati (pasport, guruh ro'yxati) bo'lsa amalga oshiriladi.

3.3. «Buyurtmachi»ning foydalanilmagan temir yo'l chiptalarini qaytarishda, "Bajaruvchi" O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti orqali yo'lovchilar, bagaj va yuklarni tashish qoidalari"da ko'rsatilgan talablar bo'yicha amalga oshiriladi. Bunday holatlar "Buyurtmachi"dan "Bajaruvchi"ga yetkazilgan zararlarni to'liq talab qilish huquqiga ega. "Buyurtmachi" esa yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.

3.4. "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ning temir yo'l chiptalari uchun berilgan buyurtmalar xizmati uchun alohida, xizmat haqi olish huquqiga ega va bu haqda "Bajaruvchi" tomonidan "Buyurtmachi"ga berilgan hisob-fakturasiga aks ettiriladi.

3.5. Shartnomaning umumiy summasi \_\_\_\_\_ so'mni tashkil qiladi. Xar bir olinadigan temir yo'l chiptalarining tariflar bo'yicha va ko'rsatilayotgan xizmatlarni narxi, shu kunda amalga bo'lgan bahoda hisob-kitob qilinadi.



6. Temir yo'l chiptalarini sotish, ular sotib olingan kunidagi tariflar bo'yicha filialning kassalarida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha amalga oshiriladi. "Buyurtmachi"ga majburiy ravishda taqdim etilgan xizmat narxi uchun hisob-faktura va tegishli kvitansiya taqdim etiladi.

3.4. O'zbekiston Respublikasining temir yo'l transportida yo'lovchilarni, bagajni va yuk bagajni tashish qoidalarining muvofiq foydalanilmagan yo'l hujjatlarini qaytarishda, qaytarib berish muddati va qaytarib berish amaliyoti uchun belgilangan to'lovga qarab ushlab qolish uchun tegishli miqdordagi summa "Buyurtmachi"dan "Bajaruvchi" ushlab qoladi. Bundan tashqari, ariza uchun undirilgan mablag' "Buyurtmachi"ga qaytarilmaydi.

#### IV. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. "Bajaruvchi" temir yo'l chiptalarini ro'yxatdan o'tkazishning to'g'riligiga javobgardir.

4.2. "Buyurtmachi" taqdim etilgan ariza, ma'lumotlari, temir yo'l chiptalarini berish uchun zarur bo'lgan pasport ma'lumotlari to'g'riligiga javobgardir.

4.3. "Bajaruvchi" xalqaro va mahalliy poyezdlarda hamda tezyurar poyezdida "Buyurtmachi" tomonidan belgilangan poyezd ketgan sanada mavjud o'rinlar mavjud yemasligi sharti bilan "Buyurtmachi" ushbu shartnoma shartlarini bajarishdan voz kechishga haqli.

4.4. "Buyurtmachi" tomonidan ko'rsatilgan sanada xalqaro, mahalliy poyezdlarida hamda tezyurar poyezdida bo'sh joylar mavjud bo'lmagan taqdirda, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga mazkur shartnoma shartlarini bajarishni rad etish huquqiga ega.

4.5. Taraflar ushbu bo'limda ko'rsatilmagan holatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonun talablari asosida javobgar bo'ladi.

#### V. BARTARAF QILIB BO'LMAYDIGAN KUCHLARNING TA'SIRI

5.1. Tomonlardan hech biri boshqa tomonning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarni tomonlarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo'lmagan hollar, bunga qo'shib urush e'lon qilish yoki amalda boshlanganligi, fuqarolik tartibsizligi, yer qimirlashi, suv bosishi, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar bilan bog'liq holda bajarmaganliklari uchun javobgarlikni o'tamaydi.

5.2. Bartaraf qilib bo'lmaydigan kuchlarning majburligi yoki amalda davom etayotganligini O'zbekiston Respublikasi Hukumatining shunga oid qarorlari yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan berilgan guvohnomalari ularning yetarli darajadagi tasdig'i bo'lib hisoblanadi.

5.3. O'z majburiyatini bajarmagan tomon shartnoma bo'yicha majburiyatni bajarishga uning ta'sir ko'rsatishi yoki qarshilik qilishi to'g'risida boshqa tomonga imkon qadar tezda xabar berishi lozim.

5.4. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan holatlar 3 oy davomida izchil ta'sir etayotgan bo'lsa va tugash belgilari aniqlanmasa, "Bajaruvchi" va "Buyurtmachi"ga boshqa tarafga xabar yuborish yo'li bilan ushbu shartnoma bekor qilinishi mumkin.

#### VI. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

6.1. Taraflar o'rtasida ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq paydo bo'ladigan barcha nizolar yoki kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi.

6.2. Agar kelishmovchiliklarni muzokara yo'li bilan hal qilib bo'lmasa, ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sudida ko'rilishiga tegishli bo'ladi.

#### VII. SHARTNOMAGA QO'SHIMCHA VA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH TARTIBI

7.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday qo'shimcha va o'zgartirish, agar ular yozma ravishda rasmiylashtirilib va har ikki tomon imzolagan hollardagina haqiqiy kuchga ega bo'ladi.




7.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish tomonlarning kelishuvi bo'yicha yoxud O'zbekiston Respublikasi amaldagi Fuqarolik Kodeksi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha yetkazilgan zararlarni qoplash bilan amalga oshirilishi mumkin.

7.3. Mazkur shartnomani taraflar bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega emas.

#### VIII. YAKUNLOVCHI QOIDALAR.

8.1. Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilib, taraflardan har biriga bir nusxadan beriladi.

8.2. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati 2022 yilning 31 dekabr kuniga qadar deb belgilanadi.

"BAJARUVCHI"	"BUYURTMACHI"
<p>"O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ Toshkent shahri, Turkiston ko'chasi № 07-uy. H/r: 20210000603717281003 MFO 00875, Milliy bank Mirobod filiali, STIR: 202472894, CTIR: 201051951 KKS to'lovchi sifatida ruyxatga olingan kodi: 326010005344 OKONK: 511E1</p> <p>Boshliq  A.M. Djaborov.</p>	<p>manzil: _____</p> <p>telon: _____</p> <p>hisob raqam: _____</p> <p><b>QARSHI XALQARO AEROPORTI" MCHJ</b> Qarshi sh. Buyuk Turon ko'chasi 3-uy. Indeks: 180115 H/T: 2021 0000 1003 5472 8001 MFO 000150 INN: 201343184 OKED: 52230 STIR: "O'ZTIF MILLIY BANK" Qarshi shahar OKED: _____</p> <p>Boshliq </p> <p></p>